

G'AZNAVIYLAR DAVLATINING YUKSALISHI VA ZAVOLGA YUZ TUTUSHI.

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev640@gmail.com

Tel: +998883638090

Annotatsiya: Ushbu maqolada G'aznaviylar davlatining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, Mahmud G'aznaviy davrida mamlakat hududining kengayishi, qo'shni davlatlar, saljuqiylar, qoraxoniylar va xorazm bilan munosabatlari, poytaxt G'azna shahrining Sharqning yirik ilm maskaniga aylanishi, Ma'sud G'aznaviyning hokimiyatga kelishi, uning davrida mamlakatning zaiflashuvi va yemirilishi kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahmud G'aznaviy, G'azna, Qoraxoniylar, Ma'sud G'aznaviy, Hindiston, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat.

X asr boshlarida O'rta Osiyoning janubi va Xuroson hududlarini egallagan G'aznaviylar davlati mintaqadagi yirik siyosiy kuchga aylandi. Ayniqsa, Mahmud G'aznaviy (998–1030-yillar) hukmronligi davrida davlat o'z qudratining cho'qqisiga chiqdi. U harbiy yurishlar orqali Hindistonning shimoliy hududlarini egallab, islom dinining yoyilishiga katta hissa qo'shdi. G'arbda esa Eron va Iroq hududlarigacha bo'lgan yerlarda o'z hukmronligini o'rnatdi. 1017-yilda Xorazmga yurish qilib, uni ham bo'ysundirdi. Poytaxt G'azna shahrida olim va ulamolarni to'plab, yuksak ilmiy muhit yaratdi. Uning saroyida jahon ilm-faniga ulkan hissa qo'shgan Beruniy, Bayhaqiy va Nosir Xusrav kabi allomalar faoliyat yuritgan. Mamlakatda savdo-sotiq va hunarmandchilik rivoj topgan. Harbiy qudrati ham yuqori bo'lib, qo'shin tarkibida daryo floti ham mavjud edi. Mahmud G'aznaviyning vafotidan so'ng, uning o'g'li Mas'ud davrida ko'chmanchi qabilalar harakatlarining kuchayishi, Saljuqiylar isyoni hamda Qoraxoniylar bilan raqobatning keskinlashuvi natijasida davlat zaiflashib, asta-sekin tanazzulga yuz tuta boshladi.

997-yilda Sabuqteginning vafotidan so'ng G'aznaviylar taxtiga uning o'g'li Ismoil o'tirdi. Ammo Ismoilning hukmronligi uzoq davom etmadi. Yetti oylik hukmronlikdan keyin Mahmud G'aznaviy G'aznani egallab, hokimiyatni o'z qo'liga oldi va G'aznaviylar davlatining yangi hukmdori sifatida taxtga o'tirdi.

Mahmud nihoyatda mohir va uzoqni ko'ra biladigan davlat arbobi edi. 999-yilda Nasr Qoraxoniylar Buxoroni egallagach, Mahmud Bag'dod xalifasi Qodir (991–1031)dan “Yamin ad-davla va Amin al-milla”, ya'ni “Davlatning o'ng qo'li va musulmonlar jamoasining ishonchli vakili” unvonini hamda Xurosonni boshqarish vakolatini oldi. Mahmud ushbu unvonga javoban xalifa Qodirning nomini xutbaga qo'shdirib, jome masjidlarida o'qitira boshladi. Bu holat Mahmudning mustaqil siyosat yurita boshlaganini ko'rsatish bilan birga, uning obro'-e'tibori yanada oshganligining ham dalili edi. 1001-yilda Mahmud Qoraxoniylar davlati bilan chegaralarni aniq belgilash maqsadida Qoraxoniylar hukmdori Nasr bilan muzokaralar olib bordi va shartnoma tuzdi. Unga ko'ra, ikki davlat o'rtasidagi asosiy chegara Amudaryo deb belgilandi. 1005-yilda so'nggi Somoniy hukmdori Ismoil Muntasir qatl etilgach, sobiq Somoniylar davlati hududida ikkita mustaqil davlat shakllandi. Ulardan biri Qashg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'd hududlarini o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati edi. Ikkinchisi esa Shimoliy Hindiston chegaralaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan, hozirgi Afg'oniston hamda Eronning shimoli-sharqiy viloyatlarini qamrab olgan G'aznaviylar davlati bo'ldi.[8, b. 192-193].

1002-yili Mahmud Eronning Seyiston viloyatini qo'lga kiritadi. 1006–1008-yillarda Qoraxoniylar Qodirxon Mahmud G'aznaviyning yo'qligidan foydalanib, Xurosonga yurish qiladi. Bunday hol ikki bor takrorlanib, Mahmud har ikkala holatda ham Qodirxon qo'shinlarini tor-mor keltiradi va Xurosondan haydab chiqaradi. 1010–1011-yillarda G'ur viloyatiga yurish qilib, uning hokimi ibn Suriyni asir oladi. Keyin G'archistonni (Marv va Hirot oralig'idagi hudud) egallab, podshoh Sharrni ham bandi qiladi. 1015-yilda esa hozirgi Afg'onistonning chekka tog'li hududi Hamovandni bosib oladi. 1002–1026-yillar mobaynida Mahmud G'aznaviylar Hindistonga 17 marotaba yurish qiladi. Shubhasiz, bu yurishlarda sulton ko'plab boyliklarni qo'lga kiritadi, o'nlab shahar va qishloqlarni vayron qiladi. Birgina 1019-yildagi yurishda 350 ta fil, 57 mingta asir va behisob boyliklarni o'lja sifatida qo'lga kiritgan.[5, b. 232].

Harbiy yurishlarda Mahmud G'aznaviylar erishgan g'alabalar va qo'lga kiritilgan behisob boyliklar G'aznaviylar davlatining qudratini tobora oshirib yubordi. U siyosat bobida har qanday vaziyatdan unumli foydalandi. Hatto qo'shni Qoraxoniylar xoni Mahmud ham u bilan hisoblashardi. Bu davrda ilkexon o'rtasidagi adovat kuchli edi. Mahmud G'aznaviylar Samarqand va Buxoroda o'tirgan ilkexon Alptekin bilan Qashg'arda o'tirgan tamg'achxon Qodir o'rtasidagi ziddiyatdan ustalik bilan foydalanishga harakat qildi va xonlar xoni Qodir yordamida qo'shnisi Alptekinni kuchsizlantirmoqchi bo'ldi. 1025-yilda Mahmud G'aznaviylar bilan tamg'achxon Qodir Samarqand yonida uchrashdilar. Bu uchrashuvda juda katta siyosiy masalalar muhokama qilinadi. Movarounnahrni Alptekin qaytarib olishi va

uni Qodirxonning o'g'li Yigantekinga berishga o'zaro kelishadilar. Bu kelishuvdan xabar topgan Alptekin Movarounnahrni vaqtincha tashlab Zarafshon daryosining o'ng qirg'og'idagi Nurota tumani hududlarida ko'chmanchi hayot kechirib yurgan saljuqiylar turkmanlar orasiga jon saqlashga majbur bo'ldi. Bu hududlarda Saljuqning nabiralari Isroil, To'g'ru'l va Dovudlar egalik qilar edilar. Mahmud G'aznaviy qo'shinlari bilan saljuqiylar o'rtasida jang bo'lib, Isroil asir olinadi. U garovga olinib, asir sifatida hind qal'alaridan biriga yuboriladi va shu yerda vafot etadi.[1, b. 41].

Mahmudning o'limidan so'ng 1030-yili taxtga uning o'g'li Muhammad o'tiradi. Vaholanki, undan katta o'g'li – Mas'ud ham bor edi. O'sha zamonda yozilgan manbalar sharhiga ko'ra, Mahmud taxtni kichik o'g'li Muhammadga vasiyat qilish bilan birga, unga "Akan Mas'ud bilan qarama-qarshilikka borma, agar u senga qarshi chiqsa, urishib yurma, (bekor) nobud bo'lasan", degan. Haqiqatan ham, tez orada Mas'ud va Muhammad o'rtasida ixtilof yuzaga keladi. Mas'udning Muhammaddan ustun bo'lganini zamondosh tarixchilar ham tan oladilar. Xullas, shu yilning o'zidayoq Mas'ud taxtni egallaydi.[2, b. 154].

Ma'sud G'aznaviy otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qola olmadi. Uning hukmronligi davrida (1030–1041) G'aznaviylar davlati o'z qo'l ostidagi hududlarni birin-ketin qo'ldan chiqara borib, inqirozga yuz tuta boshladi. G'aznaviylardan birinchi bo'lib Xorazm ajralib chiqdi. Uning hukmdori Mahmud Oltintosh rasman mustaqil ichki va tashqi siyosat yurgizgan bo'lsa-da, amalda Mahmud G'aznaviyga tobe bo'lib, unga ochiqdan-ochiq qarshi chiqishga jur'at qilolmagan edi. 1032-yilda Xorazm hukmdori Mahmud Oltintosh vafot etadi. Shundan so'ng Ma'sud G'aznaviy Oltintosh vorislarining hokimiyatini cheklash choralarini ko'radi. Ya'ni, Xorazmshoh unvoni Ma'sud G'aznaviyning o'g'li Sulton Saidga berilib, Mahmud Oltintoshning o'g'li Horun esa Sulton Saidning Xorazmdagi vakili bo'lib qoldi. Bunday siyosat, albatta, Horunning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. 1034-yilda Horun ibn Oltintosh G'aznaviylarga qarshi isyon ko'tardi. U Saljuqiylar va Qoraxoniylar bilan do'stona munosabat o'rnatib, Xorazmni G'aznaviylardan mustaqil deb e'lon qildi va Sulton Ma'sud nomiga xutba o'qishni bekor qilish to'g'risida farmon berdi.[4, b. 172].

G'aznaviylar davri boshqaruv tizimi o'zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etib, ko'p jihatdan Somoniylar, Qoraxoniylar zamonidagi davlat boshqaruvi tizimlariga yaqin va o'xshash edi. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Avvallari ham ko'rilganidek, dargohga oliy hukmdor hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida "hojiblik" xizmati alohida e'tiborga loyiq. G'aznaviylar bo'yicha manbalarda hojiblikning: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib-jomador kabi mansablari keltirib o'tiladi. Ulug' hojib nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo'lgan. Katta

ahamiyat kasb etuvchi janglarda ulug' hojibga qo'shinning eng salmoqli va mas'uliyatli qismiga boshchilik qilish yuklatilgan. Oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipoh-salor o'ng qanotga, ulug' hojib esa chap qanotga qo'mondonlik qilgan. Ulug' hojib o'ta jiddiy harbiy yurishlar, maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta'minotini joyiga qo'yish tadbirlarida ham faol bo'lgan.

G'aznaviylar davridagi devonlardan beshtasining nomi: vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni; harbiy ishlar devoni; diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni; hisob-kitob, ya'ni moliya devoni; pochta-xabar devoni manbalarda keltirib o'tiladi.[6, b. 174]

G'aznaviylarning tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e'tibor berish lozim: ularning mintaqa hududidagi munosabatlari va mintaqadan tashqaridagi aloqalari.

Mamlakat shimolidagi qoraxoniylar bilan 1001-yilgi Mahmud G'aznaviy va Nasr Qoraxoni o'rtasidagi kelishuvga binoan Amudaryo ikki tomon manfaatlarini ajratib turuvchi chegara hisoblangan. Garchi bu ahdnoma keyinchalik bir necha marta (asosan qoraxoniylar tomonidan) buzilib turgan bo'lsa-da, umuman olganda, daryo ikki tomon uchun chegara bo'lib qolavergan. Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin. G'aznaviylar uchun xuddi o'zlari kabi kuchga to'lib turgan qoraxoniylar bilan munosabatlarni keskinlashtirishdan ko'ra Xorazm va Shimoliy Hindistonni bo'ysundirish ham real, ham moddiy jihatdan ancha nafli edi. Buni shundan ham bilib olsa bo'ladiki, Mahmudning o'zi Shimoliy Hindistonga bir necha marta harbiy yurish uyushtirgan, Xorazmni bo'ysundirgan (1017-yili). Shu ma'noda Mahmud ko'proq uzoqni o'ylaydigan, mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi sifatida gavdalanadi. Ham hududiy, ham siyosiy-harbiy, iqtisodiy jihatlardan o'ziga yarasha qudratga ega bo'lgan qoraxoniylar bilan birdaniga keskin siyosat yurgizish kaltabinlik bo'lardi.

Saljuqiylar bilan munosabatda ham Mahmud uzoqni ko'zlab ish tutadi. Garchi bu vaqtda saljuqiylar yetuklik darajasidan yiroq bo'lsalar-da, lekin umuman jiddiy harbiy kuch sifatida Xurosonga xavf tug'dirishlari mumkin edi. Ayniqsa, Mahmudning Shimoliy Hindistonga uyushtirgan yurishlari chog'ida bunday xavf voqelikka aylanishi ehtimolga yaqin bo'lgan. Shuning uchun ham u 1025-yili turk-o'g'iz urug'laridan bir qismiga (to'rt ming chodir) Xurosondan manzil beradi. Keyinchalik Mas'ud davrida ular kuchayib, g'aznaviylarga qaqshatqich zarba beradilar.[3, b. 119-120].

Xurosonning ayrim hududlariga saljuqiy qabilalar kelib joylashgan bo'lsa, endilikda ular butun Xurosonni ishg'ol qilishga kirishadilar. O'lkaning G'aznaviylar siyosatidan, haddan ziyod soliq-to'lovlar asoratidan norozi bo'lgan mahalliy aholisi ham saljuqiylarni qo'llab-quvvatlab chiqadi. Bu esa ikki o'rtadagi harbiy to'qnashuvlarning pirovard yakuniga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. G'aznaviylar qo'shini bilan saljuqiylar o'rtasidagi birinchi katta urush 1035-yilda Nissa shahri yonida bo'lib o'tdi. U saljuqiylar g'alabasi

bilan yakunlandi. Ko'p o'tmay saljuqiylar o'z g'alabalarini mustahkamlab, Xurosonning ancha qismini, jumladan, Nishopurni qo'lga kiritdilar (1038-y.). 1040-yil bahorida Dandanakon yonida (Saraxs bilan Marv oralig'i) bo'lgan so'nggi hal qiluvchi jangdan so'ng Ma'sud G'aznaviy qo'shini qaqshatqich zarbaga uchrab, butun Xuroson o'lkasidan mahrum bo'ladi. Ko'p o'tmay Ma'sud ukasi Muhammad tomonidan qatl qilinadi (1041-y.). Tez vaqt ichida hokimiyatni egallagan Ma'sudning o'g'li Mavdud ham bir necha bor kuch to'plab saljuqiylar bilan urush olib borgan bo'lsa-da, ammo o'z qo'shinini mag'lubiyatdan saqlab qola olmadi. 1059-yilda G'aznaviylarning muhim tayanchi — Balxning saljuqiylar qo'lga o'tishi G'aznaviylarning so'nggi umidini ham puchga chiqardi. Bu esa pirovardida G'aznaviylar davlatining puturdan ketishiga, tarix sahnasidan butunlay tushib ketishiga sabab bo'ldi.[7, b. 102].

Xulosa qilib aytganda Mahmud G'aznaviy vafotidan so'ng G'aznaviylar davlati ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlar tufayli asta-sekin zaiflashdi. Ma'sud G'aznaviy davrida davlatning asosiy hududlari birin-ketin qo'ldan chiqib, Xorazmning ajralib ketishi va saljuqiylar bilan bo'lgan urushlar natijasida Xuroson yo'qotildi. Dandanakon jangidagi mag'lubiyat G'aznaviylar qudratining keskin pasayishiga olib keldi. Keyingi hukmdorlar davrida ham davlatni tiklashga urinishlar bo'lsa-da, G'aznaviylar avvalgi siyosiy va harbiy qudratini qayta tiklay olmadi va oxir-oqibat mintaqadagi yetakchi davlat maqomini yo'qotdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alimova R. R. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (O'rta asrlar). – T.: ToshDSHI, 2013. – 180 b.
2. Asqarov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. 1-jild. – T.: Ma'naviyat, 2023. – 456 b.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия боскинига қадар). Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 368 б.
4. Eshov B. O'zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Toshkent, 2012. – 426 b.
5. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд. – Т.: 2014. – 489 б.
6. Самаров Р.С. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). – Тошкент: Маънавият, 2023. – 458 б.

7. Usmonov Q. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. – T.: 2005. – 411 b.

8. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.

